

KICHIK BIZNESGA QANDAY YENGILLIKLAR BERILADI, KIMLAR 20  
MLN YOKI 30 MLN TO'LASA SOLIQ HISOBOTINI YURITISHI SHART EMAS,  
2023 YILGI SOLIQ O'ZGARISHLARI

*Fiskal institut "Soliqlar va soliqqa tortish" fakulteti talabasi. Adurahimov A.Z.*

*Ilmiy rahbar: i.f.n. Ergashov I.O.*

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda kichik biznesga qanday yengilliklar berildi, kichik biznes egalari qanday imtiyozlarga ega va 20 mln yoki 30 mln to'lagan kichik biznes egalariga soliq hisoboti topshirmasligi haqida qonuniy tariflar berilgan. Tadbirkorlik subyektlari endilikda foyda va harajatlarini hisob-kitob qilib soliq organlariga hisobot topshirishga majbur emasligi haqida bayon etilgan. Bundan tashqari 2023-yili o'zgargan soliq turlari bo'yicha o'zgarishlarga shaxsiy sharxlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Aylanmasi 500 mln so'm, 14 ta faoliyat, 16 trillion, oyiga 1,6 mln so'm, oyiga 2,5 mln so'm, aylanmasi 1 milliardgacha, Qo'shilgan qiyomat solig'i stavkasi

**Annotatsiya.** В статье описаны льготы, предоставляемые малому бизнесу в Узбекистане, законодательные тарифы, по которым владельцы малого бизнеса имеют льготы и не сдают налоговую отчетность владельцам малого бизнеса, которые заплатили 20 миллионов или 30 миллионов. В нем говорится, что субъекты хозяйствования больше не обязаны сдавать отчетность в налоговые органы с расчетом своих прибылей и расходов. Кроме того, в 2023 году были сделаны индивидуальные комментарии к изменениям по измененным видам налогов.

**Ключевые слова:** Сум с оборотом 500 млн., 14 видов деятельности, 16 трлн, 1,6 млн. сум. в месяц, 2,5 млн. сум. в месяц, с оборотом до 1 млрд., ставка налога на добавленную стоимость

**Abstract.** The article describes the benefits provided to small businesses in Uzbekistan, the legislative tariffs for which small business owners have benefits and do not submit tax reports to small business owners who have paid 20 million or 30 million. It says that business entities are no longer required to submit reports to the tax authorities with the calculation of their profits and expenses. In addition, in 2023, individual comments were made on the changes in the modified types of taxes.

**Keywords:** Turnover of 500 million, 14 activities, 16 trillion, 1.6 million per month, 2.5 million per month, turnover up to 1 billion, value added tax rate

2023-yildan boshlab aylanmasi 500 mln so'mgacha bo'lgan tadbirkorlar oyiga 1,6 mln so'm, aylanmasi 1 milliardgacha bo'lganlar oyiga 2,5 mln so'm qat'iy belgilangan soliq to'lashga o'tishi, dividend solig'idan ozod bo'lishi, buxgalteriya hisobini yuritmasligi haqida habarlar internetda ko'p uchratmoqdamiz. Aylanmadan olinadigan soliqning amaldagi 14 ta faoliyat turi bo'yicha 4 foizdan 25 foizgacha belgilangan stavkalarini unifikasiya qilinib, yagona 4 foiz etib belgilanmoqda. Bunda, hudud va faoliyat turiga qarab, 1 foizdan 3 foizgacha belgilangan pasaytirilgan stavkalar saqlab qolindiz. Tovar aylanmasi 500 mln so'mgacha bo'lgan tadbirkorlar uchun yiliga 20 mln so'm, aylanmasi 500 mln so'mdan yuqori bo'lganlar

uchun 30 million so‘m miqdorida qat’iy belgilangan soliqni har oyda teng ulushlarda to‘lash huquqi berilmoxda. Bu soliq to‘lovchilar buxgalteriya hisobini yuritishdan hamda foydasidan to‘lanadigan dividend solig‘idan ozod etiladi deyilmoqda. Masalan, 20 mln to‘layotgan korxonalar bir yilda 500 mln sum rejalashtirgan lekin may oyining 2-sanasidan boshlab 500 mlndan oshgan unday qanday soliq to‘lanishi va hisoblash bo‘yicha aniq ma’lumotlar taqdim etilmagan. Yuqoridagi vaziyatlari misolimizdagi masalalarga qo‘mita tomonidan hali ochiq bayonat taqdim qilinmadi ammo, qo‘mita buni ochiqlashtirgan taqdirda ham soliq hisobotini yurutmagan tadbirkor tovar aylanmasi 500 mln so‘mga yetgani yoki 500 mln so‘mdan ochishini oldindan bilish imkonni bo‘lsa ham ma’murchilikni qiyinlashtirishi mumkin. Yuqoridagi fikirlar xalq orasida yurgan gaplar hali qonuniy asosga ega emas.

“QQS 15 foizdan 12 foizga tushadi” 2023 yilgi davlat budgetiga oid qonun loyihasini parlamentga taqdim etilgan edi. Eski moliya vaziri T. Ishmetov o‘z nutqida kelasi yilgi soliq qonunchiligi bo‘yicha ham ma’lumot bergen edi. “Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi amaldagi 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi. 2023-yil boshlab 12 foizda qo‘shilgan qiymat solig‘i undirilib kelinmoqda. Buning natijasida tadbirkorlar ixtiyorida qo‘srimcha 13 trln so‘m aylanma mablag‘ qolishi pragnoz qilingan”. Shu bilan birga, 2023 yilda ushbu soliq bo‘yicha tushumlar joriy yilga nisbatan 16 trillion so‘mga ko‘p bo‘lishi tahmin qilinmoqda. Bu statistika hammasi hozircha pragnoz lekin pragnoz o‘zini oqlamoqda avvalgi yillarga qaraganda QQS summasi hududlar kesimida davlat budgetiga tushumlar sezilarli darajada ko‘paygan. Bundan tashqari prezident qaroriga ko‘ra joriy yil 1-maydan “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan jismoniy shaxslar chakana savdo obyektlaridan ayrim tovarlarni sotib olganda xarid summasidan 1% miqdordagi keshbek o‘rniga, 12% QQS<sup>5</sup> qaytariladi.

QQS qaytarib beriladigan mahsulotlar ro‘yxati:<sup>6</sup>

- 1) Qo‘y go‘shti
- 2) Parranda go‘shti
- 3) Mol go‘shti
- 4) Tuxum
- 5) O‘simplik yog‘i

QQSni qaytarib olish uchun “Ijtimoiy himoya yagona reestri”dagi iste’molchi **Soliq mobil** ilovasini yuklab olib, FACE ID orqali ro‘yxatdan o‘tishi hamda ilovada xarid chekining QR-kodini skaner qilishi lozim. QQSni qaytarishda sotib olingan mahsulot QQS qaytariladigan mahsulotlar ro‘yxatiga kirganligi, haridor “Ijtimoiy himoya yagona reestri” da ekanligi hamda tadbirkor QQS to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi inobatga olinadi. Agar reestrtdagi iste’molchi: “QQS qaytariladigan mahsulotlar bilan birga boshqa turdagи mahsulotlarni xarid qilib chekni ro‘yxatdan o‘tkazganda QQS qaytariladigan mahsulotlar uchun 12%, boshqa turdagи mahsulotlar uchun 1% keshbekka ega bo‘ladi”. QQS to‘lovchisi bo‘lmagan tadbirkorlik subyektidan QQS qaytariladigan mahsulotlar sotib olganda 1%

<sup>5</sup> (<https://t.me/huguqiyaxborot/13518>)

<sup>6</sup> [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/ayrim\\_tovarlar\\_haridi\\_uchun\\_qqs\\_qaytariladi?ysclid=lg15zo29tn509279362](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/ayrim_tovarlar_haridi_uchun_qqs_qaytariladi?ysclid=lg15zo29tn509279362)

<sup>7</sup> (<https://soliq.uz/page/mobil-ilova>)

keshbek qaytariladi. QQS summasi chek ro‘yxatdan o‘tkazilgan oydan keyin oyning 25-sanasidan so‘ng **Soliq mobil ilovasi** orqali to‘lab beriladi.

Tovar aylanmasi 1 milliard so‘mdan oshgan kichik biznes toifasiga kiruvchi tadbirkorlar uchun 1 yil davomida foyda solig‘i stavkasi 2 baravarga pasaytiriladi. Mahalliy budget daromadlari barqarorligini ta’minalash uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalari va bazalari inflatsiya doirasida yoki 10 foizga indeksatsiya qilinishi nazarda tutilgan. 2023 yilda foyda solig‘ining bazaviy stavkasi 15 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 12 foiz, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5 foiz miqdorida o‘zgarishsiz saqlanib qoldi. 2023 yil 1 apreldan boshlab budget mablag‘lari hisobidan ko‘rsatiladigan bir qator xizmatlar bo‘yicha QQSdan imtiyozlar bekor qilindi. Boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan berilgan soliq va bojxona imtiyozlarining muddatlari tugashi ham budget daromadlarida inobatga olingan. Moliya vazirligining ma’lumotiga ko‘ra, soliq va bojxona ma’murchilagini takomillashtirish hisobiga 9 trillion 200 milliard so‘m qo‘srimcha reja budget daromadlarida ko‘zda tutilgan. Umuman, davlat budgeti daromadlari 2023 yilda 232 trillion 600 milliard so‘m miqdorida bo‘lishi rejalshtirilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/24/taxes/>
2. <https://soliq.uz/page/mobil-ilova>
3. <https://yuz.uz/uz/news/ijtimoiy-himoya-yagona-reestriga-kiritilgan-shaxslarga-ayrim-tovarlar-xaridi-uchun-tolangan-qqss-qaytariladi>
4. <https://www.spot.uz/oz/2023/01/02/tax-changes/>
5. <https://www.spot.uz/oz/2023/04/05/tax/>
6. <https://pravacheloveka.uz/oz/news/sozdanie-novyh-uslovij-i-vozmozhnostej-dlya-razvitiya-predprinimatelstva-nasha-prioritetnaja-zadacha>